

Ko'rsatkich	«Jozibali» nomli milliy valyutadagi jamg'arma omonati
Muddati (min-maks)	24 oy
Pul birligi	So'm
Miqdori (min-maks)	Minimal miqdori 100 ming.so'm va yuqori miqdori chegaralanmagan.
% Stavkasi (agar bir xil bo'lmasa,... dan...gacha)	Bank ofislarida- 21% Mobil ilovasi orqali- 22%
Hisobvaraqqa qo'shimcha mablag' kirim qilish imkoniyati:	Mavjud
Hisobvaraqqan qisman mablag' chiqim qilish imkoniyati:	Mavjud (cheklanmagan)
Foiz hisoblash sharti	Omonatga foizlar mablag' qo'yilgan kunning ertasidan boshlab, saqlash muddatiga qadar yoki omonatni talab qilib olingan kundan oldingi kunga qadar hisoblanadi. Omonatga hisoblangan foizlar agar omonatchi talab qilmagan taqdirda bank ofislarida qo'yilgan omonatlarga har oyda omonat qoldig'iga qo'shiladi va mobil ilovasi orqali omonatga joylashtirilgan mablag' larga hisoblangan foizlar har oyda omonatchi nomiga ochilgan talab qilib olinguncha omonatiga kirim qilib boriladi.
Saqlash muddatidan oldin talab qilib olinganda.	Omonatdagi mablag' saqlash muddatidan oldin talab qilib olinganda, omonatga hisoblanib to'lab berilgan foizlar omonat qoldig'idan qaytarilmaydi, omonatga kunlik hisoblanib, omonat hisobvarag'iga kirim qilinmagan zahirada saqlanayotgan foizlar ham to'lab beriladi.
Mahsulotni olish usuli	Bank tarmoqlarida (oflayn) hamda bankning mobil ilovalaridan foydalangan (bankka kelmasdan) holda onlayn tarzda qabul qilinadi.
Boshqa shartlar	Omonatga kunlik hisoblangan va zaxira hisobvaraqlarida yig'ilgan foizlarni omonatchining talabiga asosan bir oy to'lmasdan ham talab qilib olishi mumkin.
Mijoz (Segment)	Barcha segmentdagi jismoniy shaxslar.
Mahsulotni qo'llanishi / maqsadi	Aholining bo'sh pul mablag'larini ushbu jamg'arma omonatiga jalb qilish orqali bankning resurs bazasini oshirish.
Sub - segment	Ish haqi loyihasi ishtirokchilari, bank kartasi egalari, (jismoniy shaxslar)
Mijozga qo'yiladigan umumiy talablar	Barcha toifadagi va yoshdagi, muloqotga layoqatli mijozlar
Omonat yillik foiz stavkasiga o'zgartirish kiritish	Kredit resurslari bozori konyunkturasidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 763-moddasiga asosan aholi omonatlari bo'yicha foiz stavkalari Bank boshqaruvi qarori bilan o'zgartirilishi mumkin. O'zgartirilgan foiz stavkalari, omonatchilarga xabar berilganidan keyin (telefon, veb-sayt, sms, matbuot va televideniya e'lon berish va/yoki yozma shaklda pochta orqali) yangidan qo'yilgan omonatlarga nisbatan qo'llaniladi. Avval qabul qilingan omonatlar bo'yicha saqlash muddati tugagunga qadar o'zgartirilgan foiz stavkalari qo'llanilmaydi.

Ko'rsatkich	«Ideal» nomli xorijiy valyutadagi jamg'arma omonati
Muddati (min-maks)	13 oy
Pul birligi	AQSh dollari
Miqdori (min-maks)	Min 100 AQSh dollari va yuqori miqdori chegaralanmagan
% Stavkasi (agar bir xil bo'lmasa,... dan...gacha)	yillik foiz stavkasi 5%;
Hisobvaraqa qo'shimcha mablag' qirim qilish imkoniyati:	Mavjud
Hisobvaraqdan qisman mablag' chiqim qilish imkoniyati:	Omonat summasining 100,0 AQSh dollaridan oshgan qismi bo'yicha qisman chiqim qilish mumkin. Bunda omonatdan mablag' chiqim qilingandan so'ng omonatda qoldiq 100,0 AQSH dollaridan kam bo'lmasligi lozim.
Foiz hisoblash sharti	Omonatga foizlar mablag' qo'yilgan kunning ertasidan boshlab, saqlash muddatiga qadar yoki omonatni talab qilib olingan kundan oldingi kunga qadar hisoblanadi. Omonatga hisoblangan foizlar har oyda to'lab beriladi. Omonat mablag'i saqlash muddatidan oldin talab qilib olinganda, foizlar faqatgina to'liq saqlangan oylar uchun to'lanadi.
Saqlash muddatidan oldin talab qilib olinganda.	Omonatdagi mablag' saqlash muddatidan oldin talab qilib olinganda, omonatga hisoblanib to'lab berilgan foizlar omonat qoldig'idan qaytarilmaydi.
Mahsulotni olish usuli	Bank tarmoqlarida (o'flayn) hamda bankning mobil ilovalaridan foydalangan (bankka kelmasdan) holda onlayn tarzda qabul qilinadi.
Mijoz (Segment)	Barcha segmentlar.
Mahsulotni qo'llanishi / maqsadi	Fuqarolarning bo'sh pul mablag'larini ushbu jamg'arma omonatiga jalb qilish orqali bankning resurs bazasini oshirish.
Sub - segment	Ish haqi loyihasi ishtirokchilari, bank kartasi egalari, (jismoniy shaxslar)
Mijozga qo'yiladigan umumiy talablar	Barcha toifadagi va yoshdagi, muloqotga layoqatli fuqarolar.
Omonat yillik foiz stavkasiga o'zgartirish kiritish	Kredit resurslari bozori konyunkturasidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 763-moddasiga asosan aholi omonatlari bo'yicha foiz stavkalari Bank Boshqaruvi qarori bilan o'zgartirilishi mumkin. O'zgartirilgan foiz stavkalari, omonatchilarga xabar berilganidan keyin (telefon, veb-sayt, sms, matbuot va televideniya e'lon berish va/yoki yozma shaklda pochta orqali) yangidan qo'yilgan omonatlarga nisbatan qo'llaniladi. Avval qabul qilingan omonatlar bo'yicha saqlash muddati tugagunga qadar o'zgartirilgan foiz stavkalari qo'llanilmaydi.